

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TUPROQ BONITIROVKASI VA  
YER RESURLARIDAN FOYDALANISH, KADASTR SOHASIDAGI  
ISHLARINING YURITILISHI VA SOHADAGI  
YANGILIKLAR XUSUSIDA**

*“Yer tarixi, uning xalqi tarixidir”  
“Yomon yer yo'q, yomon egalar bor”*

**M.X.Turayev**

*Toshkent Davlat Agrar Universiteti xuzuridagi  
Sirdaryo agrotexnologiyalar texnikumi  
Maxsus fan o'qituvchisi*

Xozirgi davrda yer yuzida aholining ko'payishi, urushlar va global iqlim o'zgarishlar natijasida yerlarning unumdorligi tuproq xususiyatlari o'zgarib ketmoqda. Bizning yurtimizda yerlarning holatini va tuproq unumdorligini yaxshilash chora-tadbirlari Prezidentimiz boshchiligida ishlab chiqilib ishlar olib borilmoqda. Yerimizning xar bir qarichni avaylab asrab, kelajak avlodga yaxshi va unumdor yer qoldirish shiori bilan ish olib borishimiz shart.

Yerning hisobini aniq yuritish va samarali foydalanish qishloq xo'jaligi, tadbirkorlik, ishlab chiqarish, qurilish, geologiya kabi ko'plab sohalar uchun juda muhim. Davlatimiz rahbari hududlarga safarlari chog'ida doim bu masalaga alohida e'tibor qaratib, har bir qarich yer xalqimizga manfaat keltirishi kerakligini ta'kidlaydi.

Afsuski, geodeziya, kartografiya va kadastr sohasida qator muammolar to'planib qolgan. Mamlakatimizda yer xatlovi oxirgi marta 40 yil oldin o'tkazilgan. Masalan, 140 ta tuman ma'muriy chegaralari hozirgacha aniq emas. Qishloq xo'jaligi yerlarini ajratish tartibi 20 yil oldin qabul qilingan va hozirgi islohotlar talabiga javob bermaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoev kadastr idoralarining eng asosiy vazifasi yerning hisobi va balansini yuritish bo'lishi kerakligini qayd etdi. Yil yakuniga qadar yer turi, konturi, chegarasi va foydalanuvchisi haqidagi ma'lumotlar jamlangan axborot tizimini ishga tushirish vazifasi qo'yildi. Endi yer ajratish to'g'risidagi qaror mazkur tizimga kiritilsagina haqiqiy hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligini boshqarishni raqamlashtirish, kelgusi yildan yer balansi va uning hisobini Milliy geoaxborot tizimida yuritish zarurligi qayd etildi. Yil yakuniga qadar qishloq xo'jaligi maydonlarini elektron tanlov va auksion asosida ajratish tartibini joriy qilish, xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda yer toifalarini optimallashtirish bo'yicha topshiriq berildi.

“Yergeodezkadastr” davlat qo'mitasining tuproq sifatini baholash, yerlarni rivojlantirish, ekinlarni joylashtirish bilan bog'liq vazifalarini, shuningdek, Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot institutini Qishloq xo'jaligi vazirligiga o'tkazish taklifi bildirildi. Jahon bankidan ajratilayotgan 87 million dollar hisobidan mazkur institut faoliyatini rivojlantirish, laboratoriyalarini yangilash muhimligi qayd etildi. Shuningdek, Qishloq xo'jaligi vazirligiga yil yakunigacha 10 ming gektar yer maydonining tuproq tahlilini va agrotexnologik xaritalarini tayyorlash vazifasi qo'yildi.

Sohadagi yana bir kamchilik – ba’zi turdagi kadastrlar to’liq shakllanmagan. Masalan, avtomobil yo’llari kadastr 23 foiz, madaniy meros ob’ektlari 32 foiz, quvurlar 32 foiz, shaharsozlik kadastr 63 foiz shakllangan, xolos.

Mamlakatimizda yerni asrab-avaylash, adolatli ajratish va undan oqilona foydalanish bo’yicha tizimli ishlar qilinmoqda. Joriy yilda qishloq yerlarini ochiq tanlov asosida ajratish, qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan joylarni auktsion asosida xususiylashtirish to’g’risida qonun qabul qilindi.

O’zbekistonda 2,6 mlnta aholi xonadonida kadastr hujjatlari yo’q, shu bois ular yer solig’ini 3 karra miqdorda to’layapti. Prezident 1 oktyabrgacha ularning ro’yxatini shakllantirishni buyurdi. Hukumat tegishli qonun loyihasini ishlab chiqish orqali kadastr yo’q uylar masalasini uzil-kesil hal qilmoqchi.

Ta’kidlanishicha, ushbu aholi tomorqa uchun kredit, subsidiya hamda uy-joyini kengaytirishga ipotekadan foydalana olmayotgani haqida Xalq qabulxonalariga murojaatlar tushmoqda. Ustiga ustak, kadastr bo’lmagani uchun yer solig’i 3 karra miqdorda hisoblanmoqda.

Shu bois Adliya vazirligi, Soliq qo’mitasi, Kadastr agentligiga bir hafta muddatda ishchi guruhlarini shakllantirib, ishlarni boshlash topshirildi.

Ishchi guruhlari:

- 1 oktyabrga qadar mahallabay kadastr hujjati bo’lmagan xonadonlarning elektron ro’yxatini shakllantiradi;
- uy-joyga bo’lgan huquqlarni e’tirof etishga asos bo’luvchi hujjatlarni to’playdi va elektron bazaga kiritadi.

Mutasaddilarga respublikaning barcha hududlarida kadastr yo’q xonadonlar masalasini uzil-kesil hal qilish uchun alohida qonun loyihasini ishlab chiqib, muhokamaga kiritish vazifasi qo’yildi.

Yangi qonun qabul qilinguniga qadar bu uy-joy egalariga uch karra oshirilgan soliq qo’llash to’xtatib turishga qaror qilindi.

Vazirlar Mahkamasining 14.01.2022 yildagi “Qishloq xo’jaligiga mo’ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi 22-son qarori qabul qilindi.

Prezidentning “Qishloq xo’jaligiga mo’ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 2021 yil 24 fevraldagi PQ-5006-son qaroriga muvofiq quyidagilar tasdiqlandi:

- Qishloq xo’jaligiga mo’ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini amalga oshirish tartibi to’g’risidagi nizom;
- Qishloq xo’jaligiga mo’ljallangan yerlarni muhofaza qilish bo’yicha davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to’g’risidagi nizom;
- Qishloq xo’jaligiga mo’ljallangan yerlarda yer tuzish ishlarini amalga oshirish tartibi to’g’risidagi nizom;
- “O’zda verloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti faoliyatini samarali yo’lga qo’yish bo’yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi.

Hujjatlar bilan qishloq xo’jaligiga mo’ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi Milliy geografik axborot tizimidagi davlat yer kadastrining qishloq

xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha yer turlari, maydoni, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar to'g'risidagi ma'lumotlari asosida amalga oshirish nazarda tutilgan.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi Qishloq xo'jaligi vazirligi, uning Qoraqalpog'iston, viloyatlardagi qishloq xo'jaligi boshqarmalari va tuman qishloq xo'jaligi bo'limlari, shuningdek, "O'zdavero'yha" instituti va uning hududiy bo'linmalari tomonidan davriy, joriy va tezkor monitoring shakllarida amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi davomida olingan ma'lumotlardan qishloq xo'jaligi yerlari holati va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlashda foydalaniladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni muhofaza qilish bo'yicha davlat nazorati respublikaning butun hududida Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Yer tuzish ishlari istiqbolga mo'ljallangan va loyihalash oldidan bajariladigan hamda xo'jaliklararo va xo'jalik ichidagi yer tuzish ishlari shakllarida amalga oshiriladi.

**Tuproq bonitirovkasi** (lot. bonitas — sifatlilik) — tuproq unumdorligini qiyosiy baholash. Tuproq bonitirovkasi 100 ballik shkala bo'yicha ifodalanadi. Tuproq bonitirovkasining asosiy maqsadi tuproqlarni unumdorligiga karab tasniflashdir. Tuproq bonitirovkasi tuproq unumdorligini xarakterlovchi tabiiy, ya'ni qishloq xo'jaligi, ekinlari hosildorligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tkaziladi. Shuningdek, Tuproq bonitirovkasida dalaning o'lchami, geometrik shakli, nishabligi, iqlim sharoiti va b. ham hisobga olinadi. Tuproq bonitirovkasi erni iqtisodiy baholash, er kadastrini yuritish, melioratsiya hamda dehqonchilik sistemasini takomillashtirish va b. uchun zarur.

Tabiiy xossalari ekinining eng yuqori hosildorligini ta'minlaydigan tuproqlar a'lo baholanadi. Bunda sug'oriladigan yerlarda tuproqning madaniylik darajasi, qadimdan sug'orib kelinganligi, genetik tipi baho mezonlari hisoblanadi. Tuproqlarning dehqonchilik uchun noqulay xususiyatlari (sho'rlanish, eroziya darajasi, botqoqlanish va b.) bonitirovka koeffitsientini pasaytiradi. Mas., kam sho'rlangan tuproqlar — 0,75, o'rtacha sho'rlanganlari — 0,70, kuchli sho'rlanganlar — 0,60 koeffitsientga ega. Ekstensiv dehqonchilik sistemasida, mas., lalmikor g'allachilikda oddiy agrotexnika, mineral o'g'itlarni chegaralangan miqdorda qo'llash tufayli ekinlarning xreildorligi Tuproq bonitirovkasining integral ifodasi hisoblanadi.

Mintaqamizda suv tanqisligi bilan bog'liq vaziyat yildan-yilga murakkablashib bormoqda. Oxirgi 10 yilda, misol uchun, O'zbekistonda suv hajmi 12 foizga, o'tgan yilgiga nisbatan esa bu yil 15 foizga kamaygan. Paxta va g'alla etishtirish uchun sarflanayotgan elektr energiyasi hamda suvni etkazib berish xarajatlari ham ko'p. Xususan, 2,5 million gektar maydonni sug'orish uchun 5 mingdan ziyod nasos ishlatilib, yiliga 8 milliard kilovatt soat energiya va 2,4 trillion so'm byudjet mablag'lari sarflanmoqda. Bir gektar maydonga suvni nasoslar orqali etkazib berish uchun byudjetdan o'rtacha 800 ming so'm xarajat qilinyapti. Egatlab sug'orish oqibatida yiliga qariyb 5-6 milliard kub metr yoki 20 foiz suv dalada behuda sarflanmoqda. Bunday sharoitda suvni tejash va hisobini yuritish har doimgidan ham

dolzarb masalaga aylandi. O'tgan ikki yilda Prezident va hukumatning shu sohaga doir 11 ta qarori qabul qilinib, hamma sharoit yaratib berildi. Lekin yig'ilishda ta'kidlanganidek, bajarilgan ishlar imkoniyat darajasida emas. Masalan, shu paytgacha 285 ming gektar, ya'ni bor-yo'g'i 7 foiz erda suv tejoychi texnologiyalar joriy etilgan. Bu borada, ayniqsa, Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm viloyatlarida qoloqlik bor. Furqat, Bo'ka, Chinoz, Sardoba, Taxtako'pir, Qorao'zak, Kasbi, Qiziriq, Muzrabot tumanlarida suv tejoychi birorta ham loyiha tatbiq qilinmagan. Shu bois, videoselektorda suv xo'jaligidagi ishlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat va tumanlar kesimida tanqidiy tahlil qilinib, galdagi muhim vazifalar muhokama etildi. Kelgusi yilda suv tejoychi texnologiyalarni joriy etishni 600 ming gektarga etkazish reja qilib qo'yildi. Buning uchun davlat byudjetidan zarur mablag' yo'naltirish, tashabbuskorlar xarajatining bir qismini qoplash uchun subsidiya berish, shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlari resurslarini jalb qilib, salohiyatli fermer xo'jaliklari va klasterlarga tijorat banklari orqali kredit ajratish yuzasidan ko'rsatmalar berildi. Suv tejoychi texnologiyalar qamrovi kengayishi bilan ularni ishlab chiqarishga ham talab oshadi.

Biroq yurtimizda shunga ixtisoslashgan 13 ta korxonaning quvvati kelgusi yil ehtiyojining yarmini qoplashga ham etmaydi. Shu bois, mutasaddilarga Samarqand, Toshkent va Namangan viloyatlarida suv tejoychi texnologiyalar uchun uskunalari ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkil etish vazifasi qo'yildi. Sohadagi yana bir innovatsiya — klasterlar 3 ming gektardan ziyod ekin maydonini lazer yordamida tekislash orqali suv sarfini 20-25 foiz, o'g'itni 15 foiz tejashga, hosildorlikni kamida 10 foizga oshirishga erishgan. Davlatimiz rahbari bu tajribani keng qo'llab, paxta, g'alla va sholi maydonlarini lazer yordamida tekislash muhimligini ta'kidladi. Moliya vazirligiga ushbu texnologiyani joriy qilishga Qishloq xo'jaligi jamg'armasidan kamida 250 milliard so'm kredit ajratish topshirildi.

Joriy yilda Quyi Chirchiq, Narpay, Bulung'ur, Sardoba, Nishon, Kasbi tumanlarida suv xo'jaligi ob'ektlari xususiy sheriklik asosida tadbirkorlarga berilib, namunaviy loyiha amalga oshirilmoqda. Bu orqali mazkur inshootlar modernizatsiya qilinib, ekspluatatsiya xarajatlari anchayin qisqaradi. Yig'ilishda bunday loyihalarni boshqa hududlarda ham joriy etish bo'yicha topshiriqlar berildi. Suv isrofiga sabab bo'layotgan muammolardan yana biri shuki, bugungi kunda 3 mingdan ziyod suv o'lchash postlarining atigi 2 foizi, 400 ta yirik suv ob'ektining 2,5 foizida boshqarish tizimi avtomatlashgan, xolos. Shu bois, Suv xo'jaligi vazirligiga yil yakunigacha 150 ta, kelgusi yildan barcha o'lchash postlarida suvni onlayn rejimda nazorat qiluvchi avtomatlashgan tizim joriy etish vazifasi yuklatildi. Ma'lumki, bu yildan qishloq xo'jaligi korxonalariga suv solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlar bekor qilindi. Shu bilan birga, suvdan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 50 foizga pasaytirildi. Prezident ushbu kamaytirilgan stavkani kelgusi yilda ham saqlab qolish zarurligini ta'kidladi. Sug'orish me'yorlarini hisoblash metodikasini BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) talablariga moslashtirish, suv hisoblagichlar o'rnatgan iste'molchilarni rag'batlantirish yuzasidan vazifalar belgilandi. "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasiga kollektor suvlarida baliqchilikni rivojlantirish bo'yicha topshiriq berildi. Namangan tajribasi asosida gidrogeologik qidiruvlarni kengaytirib, erosti suvlaridan samarali foydalanish zarurligi qayd etildi. Yig'ilishda suv xo'jaligi sohasida



fan va ta'limni rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat qaratildi. Irrigatsiya va melioratsiya ob'ektlarini barpo etish hamda rekonstruktsiya qilish ishlariga ilmiy xodimlarni birlashtirish muhimligi ta'kidlandi. Bu orqali fan namoyandalari ob'ektlarning loyihaoldi hujjatlarini tayyorlashdan ularni foydalanishga topshirishgacha bo'lgan jarayonlarda qatnashib, qurilish ishlarini ilmiy-texnik jihatdan kuzatib boradi. Fan va amaliyot uyg'unligi ta'minlanib, kelgusidagi loyihalar puxta ishlab chiqilishida qo'l keladi. Videoselektor yig'ilishida muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlari, viloyat va tuman hokimlari axborot berdi

Sho'rlangan yerlardan samarali foydalanishda tuproq sho'riga nisbatan chidamli kungaboqar, jo'xori, xashaki lavlagi va boshqa ekinlarni ekish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga ushbu tuproqlarda takrori yekin sifatida tariq, amaranta, afrika qo'nog'i kabi o'zimizda va chetdan introduktsiya qilib olinib kelinayotgan ekinlarni ekish ayni muddaodir. Ushbu ekinlardan hatto sho'rlangan yerlarda ham 400-500 t/ga, hatto unda ko'p hosil olib Respublika chorvachiligini ko'tarishda hissa qo'shish mumkin. Eng muhimi minglab gektar qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketayotgan yerlarni qaytadan dehqonchilik tizimiga kiritiladi. Bu bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Qo'yilgan muammoni hal etishda kuchsiz, o'rtacha va kuchli sho'rlangan yerlarda etishtirilgan qishloq xo'jalik ekinlari (beda, kungaboqar, oqjo'xori, xashaki lavlagi) ning sho'r ta'siriga chidamliligi, hosildorligi va mahsulot sifati o'rganildi va ilmiy asoslab berildi. Ushbu ekinlarni tuproq va iqlim sharoitidan kelib chiqib, sho'rlanish darajalariga bog'liq holda etishtirish texnologiyalari ishlab chiqildi.

**Tajriba qo'yish metodikasi.** Dala tajribalari Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanidagi Oqoltin Lops Agro fermer xo'jaligining kuchsiz, o'rtacha, kuchli sho'rlangan tuproqlarida (har xil konturlarda) o'tkazildi. Tajribada uch xil tuproq fonida (kuchsiz, o'rtacha, kuchli sho'rlangan) beda, kungaboqar, jo'xori, xashaki lavlagi ekib olib borildi. Dala tajribasi 4 ta variantda 4 takroriylikda qo'yildi. Variantlar bir yarusli qilib joylashtirildi. Egat uzunligi 50 m. Har bir variant 8 ta qator, ya'ni seyalkaning bir borib kelish hisobida (8x70 smq5,6 metr, 5.6x50 metr) 280 m<sup>2</sup> ni tashkil etadi) olindi. Har bir bo'lakchanning umumiy maydoni 280 m<sup>2</sup>, hisobiy maydoni 140 m<sup>2</sup>. Shundan kelib chiqib, tajribaning umumiy maydoni 5600 m<sup>2</sup>, hisobiy maydoni esa 2160 m<sup>2</sup>. Tuproqning hajmiy massasi tabiiy holati buzilmagan tuproq namunalarini olish yo'li bilan aniqlandi. Tuproqning suv o'tkazuvchanligi O'zPITI tomonidan ishlab chiqilgan 6 soatda egat usuli bilan aniqlandi. Tuproq namligi termostatda quritish usuli bilan har bir sug'orishdan oldin va keyin aniqlab borildi. Chegaraviy dala nam sig'imi (ChDNS) tajriba dalasining 2 ta nuqtasida maydonchani suvga to'ldirish yo'li (ROM usuli) bilan aniqlandi. Tajriba dalasi tuprog'inig sho'rlanish darajasi - mavsumiy tuz to'planish miqdorlari (0-100 sm) aniqlandi. Dalaga beriladigan suv miqdori Chippoletti (VCh-25) va oqova suv miqdori Tomson (VT-90) suv o'lchash asbobi orqali hisobga olindi. Ekinlar ekilgan sanasi qayd qilindi; maysa chiqarish-unib chiqqa boshlanishi; qiyg'os unib chiqqan vaqti; shonalash boshlangan vaqti va avjiga etgan vaqti; gullash boshlangan vaqti va qiyg'os gullagan vaqti; etilishi boshlangan vaqti va to'liq etilgan vaqti; maysa chiqargandan to'la etilguncha o'tgan kunlar; 1000 ta urug'ning vazni aniqlandi. Dala sharoitida hosil etilgandan keyin har bir delyankadan 25 ta o'simlik olinib, dastlab ho'l massa, so'ngra quruq massa hisoblab

chiqiladi. Tajriba dalasidagi jami hosil miqdori delyankalar bo'yicha, so'ngra uni gektarga aylantirib hisoblab chiqish yo'li bilan aniqlandi. Tajriba dalasida tuproqning agrokimyoviy xossalari o'rganildi.

1. Tajriba dalasi tuprog'ining agrokimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash uchun bahorda dalaning 5 nuqtasidan konvert usulida 0-30 va 30-50 cm lik tuproq qatlamlaridan aralashgan tuproq namunalari olindi. Bu namunalarda umumiy gumus, chirindi miqdori I.M. Tyurin; azot va fosfor I.M. Maltseva, L.N. Gritsenko usulida; nitratli azot – ionometrik asbobda; harakatchan fosfor B.P. Machigin va almashinuvchi kaliy P.V. Protasov usullarida aniqlandi.

2. Tuproqning haydov, haydov osti katlamlari bo'yicha ekish oldidan 0-30 sm va 30-50 sm qatlamda NRK, umumiy va harakatchan shakllari, gumus, chirindi miqdori aniqlash uchun namunalar olinib, laboratoriya tahlili o'tkazildi.

**Tadqiqot natijalari.** Sho'rlangan tuproqlar sharoitida bedaning agromeliorativ ahamiyati o'ta muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, sho'rlangan tuproqlar sharoitida beda etishtirish texnologiyasini o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Chunki, tuproq yuzasini bedaning bio massasi bilan qoplashi hisobiga tuproq sirtining qizishi kamayadi. Qanchalik tuproq sirtining qizishi kamaysa, tuproqdan suvning bug'lanishi kamayadi. Tuproq sirtidan bug'lanishning kamayishi sizot suvlari sathi ko'tarilishini kamaytiradi. Bu esa tuproq sho'rlanishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada bedazordan namlikning bug'lanishi kamayib, tuz to'planishi yuz bermaydi. Ikkinchidan, beda tuproq strukturasi, uning suv-fizik xossalari yaxshilaydi va shu tufayli tuproqda suvning harakati faollashib, chuqurroqqa kirib boradi va tuproqni sho'rsizlantiradi. Bedaning ildizlari juda chuqurga (3-4 m va undan ham chuqur) kirib, sizot suvlarini bug'lantiradi (10-15 ming m<sup>3</sup>/ga), bu esa sizot suvlari sathining pasayishiga olib keladi. Bedadan keyin tuproq unumdorligi oshirilgan yerlarda ekilgan ekin uchun suv sarfi ancha kamayadi (15-20%). Bedapoya haydalgandan so'ng birinchi yili yerning sho'rini yuvmasdan keyingi ekindan mo'l hosil olish imkoniyati tug'iladi. Bedadan yuqori hosil olish uchun tuproq namligi ChDNSga nisbatan 70-80% bo'lishi talab etiladi. Beda ekilgandan keyin tekis ko'chatlar hosil qilgan bo'lsada, yosh ko'chatlar tuz ta'siriga o'ta chidamsiz bo'ladi. Shuni inobatga olib, bedani poya hosil qilishi yoki tuplanish davrigacha 2-marta 600-700 m<sup>3</sup>/ga hisobida sug'orildi, beda tuplari o'zini tuti bolgandan keyin o'rimlar orasida ham 2 martadan sug'orib turildi. Bedaning hosildorligini aniqlashda takrorlashlar bo'yicha 1m<sup>2</sup>dagi poyalar soni, ko'k va quruq massa, hamda delyankalar bo'yicha hosildorlik alohida olingan tartibda hisoblab chiqildi. Birinchi o'rimdan oldin 1m<sup>2</sup> dagi poyalar soni o'rtacha 172,5 ta, ko'k massa chiqishi 1212,5 g, quruq massa 163,75 g bo'ldi. Jumladan, beda hosildorligi ko'k massa hisobida o'rtacha 121,2 t/ga va quruq pichan hisobida 18,6 t/gani tashkil etdi. Ikkinchi o'rimda beda tup sonining oshib borishi va o'simlik o'sishi, rivojlanishining jadallashishi hisobiga 1m<sup>2</sup> dagi poyalar soni, ko'k massa va quruq pichan hosili ko'paydi. Bunda 1 m<sup>2</sup> dagi poyalar soni 188,7 ta yoki birinchi o'rim oldidagi ko'rsatgichdan 16 ta, ko'k massa 1280 g, quruq pichan hosili 180 g, va nihoyat bir gektar hisobidagi ko'k massa hosili 126 t/ga, va quruq pichan hosili 20,8 t/gani tashkil etib, birinchi o'rimga nisbatan 2,2 t/ga ko'p quruq pichan hosili olindi. O'rtacha sho'rlangan tuproqlar sharoitida birinchi o'rimdan oldin 1m<sup>2</sup> dagi poyalar soni o'rtacha 128,2 ta, ko'k massa chiqishi 927,5 g quruq massa

117,0 g bo'ldi. Bada hosildorligi ko'k massa hisobida o'rtacha 91,7 t/ga va quruq pichan hisobida 15,3 t/gani tashkil etdi. Ikkinchi o'rinda beda tup sonining oshib borishi va o'simlikning o'sishi, rivojlanishining jadallashishi hisobiga 1m<sup>2</sup> dagi poyalar soni, ko'k massa va quruq pichan hosili ko'paydi. Bunda 1m<sup>2</sup> dagi poyalar soni 131,0 ta, ko'k massa 960,5 g, quruq pichan hosili 127,2 g, va nihoyat bir gektar hisobidagi ko'k massa hosili 90,45 t/ga, va quruq pichan hosili 17,3 t/ga ni tashkil etib, birinchi o'ringa nisbatan 2,0 t sentrga oshish kuzatildi. Tuproqda tuz miqdorining 0,5-1,0 va hatto 2,0 foizgacha (kuchli sho'rlangan tuproqlarda) ortib borishi dastlab yosh ko'chatlarni, keyinchalik shakllanib ulgurgan o'simliklarni nobud qildi. Kungaboqar ham sho'rga chidamlilik darajasi bo'yicha oraliq ekin o'rinda turadi. Ammo tuproqda o'simlikning o'sishi va rivojlanishining dastlabki davrida tuzning miqdori tuproq quruq vazniga nisbatan 0,5-1,0% gacha ortib borishi uning o'sishi va rivojlanishigao'z ta'sirini o'tkazar ekan. Bu olingan ma'lumotlarda yana bir bora o'z aksini topdi. Olib borilgan tadqiqotlarda kuchsiz va o'rtacha sho'rlangan tuproqlar orasida kungaboqarni biometrik hisoblashlarida ma'lum farq kuzatilganligi qayd etildi. Jumladan, o'rtacha va kuchli sho'rlangan tuproqlar sharoitida o'simlikning dastlabki rivojlanishida tuzning ta'siri sezilarli namoyon bo'lib, keyingi rivojlanish fazalarida ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Umuman olganda, o'simlikning bo'yi 1.06.19 dagi biometrik hisoblashlarda 13 sm, 1.07.19 da o'tqazilgan hisoblashlarda 83,6 sm ni va nihoyat 1.08.19 da 130,4 sm ni tashkil qilib, kuchsiz sho'rlangan variantlarda parvarish qilingan o'simliklardan sezilarli ravishda orqada qolganligi kuzatildi. Bu holat albatta hosildorlikka o'z ta'sirini ko'rsatdi. Kuchsiz sho'rlangan tuproqlar sharoitida kungaboqardan 4 qaytariq bo'yicha o'rtacha 106,6 t/ga hosil olingan bo'lsa, o'rtacha sho'rlangan yerlardan 90,8 yoki 15,6 t/s kam quruq silos hosili olindi. Kungaboqar kuchsiz sho'rlangan tuproqlar bilan bir qatorda o'rtacha sho'rlangan tuproqlar sharoitida ham yaxshi o'sib rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan o'simlikdir. Ammo buning uchun o'simlikni dastlabki o'sish va rivojlanish davridayoq tuzga chidamliligini oshirish (adaptatsiyalash) yoki moslashuvchanligini ko'tarish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining 2021 yil 1 yanvar holati to'g'risida Milliy hisobot O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan hisobot yilida korxonalar, muassasa, fermer xo'jaliklari va tashkilotlarning yerlaridagi barcha o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hamda tuman, shahar va viloyat hokimlarining qarorlari bilan tasdiqlangan yillik yer hisobotlarini respublika bo'yicha umumlashtirish natijasida tuzildi.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 2021 yil 1 yanvar holatiga jami yerlar **44892,4 ming** gektarni, shundan sug'oriladigan yerlar esa **4331,7 ming** gektarni yoki umumiy yer maydonining **9,6 foizini** tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi yer fondi yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko'ra o'ziga xos hususiyatlarga ega bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 8-moddasiga asosan **8 ta** toifaga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son farmoni, Vazirlar maxkamasining 2020-yil 7 avgustdagi №466 sonli qarorlari asosida